

SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Toshqulova Zebiniso

TerDU lingvistika yo`nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sifat so`z turkumi va uning o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida ma`lumot beriladi. Sifatlarning gapda qo`llanilishi hamda ma`noviy jihatlariga ko`ra qanday uslubiy xoslanishga ega bo`lishi haqida so`z yuritiladi. Ta`kidlash lozimki, sifat so`z turkumining uslubiy xususiyatlari og`zaki nutqda uning talaffuzi yoinki so`z ohangidan kelib chiqib belgilansa, yozma matnlarda sifatlarning uslubiy xoslanishi ularning ifodalagan ma`nosiga ko`ra tadqiq qilinadi.*

Kalit so`zlar: *sifat, so`z turkumi, uslubiy xususiyat, ma`noviy jihat, ma`no, tahlil, tadqiq.*

METHODICAL PROPERTIES OF THE QUALITY WORD SYSTEM

Toshqulova Zebiniso

1st year master's degree in linguistics, TerSU

AnnotationL *This article provides information about the adjective phrase and its peculiarities. There is talk about the use of adjectives in speech and how they have a methodological character in terms of spirituality. It should be noted that the methodological features of the adjective phrase are determined in oral speech based on its pronunciation or tone of voice, while in written texts the methodological characterization of adjectives is studied according to their meaning.*

Keywords: *quality, vocabulary, methodological features, spirituality, meaning, analysis, research.*

МЕТОДИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА СИСТЕМЫ СЛОВ КАЧЕСТВА

Тошқулова Зебинисо

1 курс магистра лингвистики, ТерГУ

Аннотация: *В данной статье представлена информация о прилагательном словосочетании и его особенностях. Идет речь об употреблении прилагательных в речи и о том, как они носят методологический характер с точки зрения духовности. Следует отметить, что методологические признаки прилагательного словосочетания определяются в устной речи на основе его произношения или интонации, тогда как в письменных текстах методологическая характеристика прилагательных изучается по их значению.*

Ключевые слова: *качество, лексика, методологические особенности, духовность, смысл, анализ, исследование*

O`zbek tilida qo`llanilayotgan har bir so`z o`ziga xos ma`noviy jihatiga ega hisoblanadi. Qaysidir so`z so`zning nomini ifodalasa, boshqa biri so`zning harakat ifodalashiga ko`ra farqlanadi. Yana shunday so`zlar guruhi borki, ular nomning belgisini bildirishiga ko`ra turkum vazifasini bajaradi. Bu so`z turkumi sifat sanalib, biz siz bilan tadqiq qilmoqchi bo`lgan ushbu maqolada ham aynan bu so`z turkumining gaplarda uslubiy vazifa bajarishi xususida so`z yuritiladi.

Sifat - obyekt va subyektning belgisini ifodalovchi so`z turkumi hisoblanadi[2]. Qanday? qanaqa? qaysi? so`roqlariga javob bo`luvchi ushbu so`z turkumi ko`rinish jihatidan ravish turkumiga o`xshab ketadi[10]. Biroq shaxs yoki narsaning belgisini ifodalovchi sifat turkumi harakat va holatning belgisini ifodalash xususiyatidan xoli va bu aynan ravish turkumiga xos uslubiyat hisoblanadi. Ushbu turkum so`zlarning o`ziga xos yasalish jihatlari mavjud va shu o`rinda ularni ta`kidlab o`tish o`rinli:


a) Affiksatsion usul , ya`ni bunda qo`shimchalar asosiy yasovchi vosita sifatida qaraladi: gulli, guldor, sersuv va boshqalar;

b) Sintaktik usul – bunda ikki so`zning birikuvidan sifat turkumi yuzaga keladi: sheryurak, quyonyurak, oqko`ngil va h.z.;

c) Takroriy usul – ushbu holatda bir so`zning aynan takrorlanishi orqali yangi sifat hosil bo`ladi: yo`l-yo`l, gul-gul[3].

Sifat so`z turkumi ifodalagan ma`nosidan kelib chiqqan holda bir necha guruhlarga bo`linishi mumkin. Ta`kidlash lozimki, har bir sifat guruhi bir-biridan shakllantirgan ma`nosiga ko`ra tubdan farqlanadi:

Sifatning ma`noviy guruhlari(1-chizma).



Sifat soʻz turkumi oʻz doirasida maʼlum sinonimik qatorlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu misolga eʼtibor bering:

- I. Goʻzal – chiroyli – xushroʻy ;
- II. Badbashara – xunuk – turqi sovuq.

Yuqorida keltirilgan birinchi misollar guruhida neytral soʻz sifatida, yaʼni dominanta sifatida “chiroyli” soʻzini qayd etishimiz mumkin. “Chiroyli” leksemasiga “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da quyidagicha taʼrif beriladi: husni odatdagidan ortiq, koʻrkam, goʻzal. “Yoshlik” jurnalidan olingan, chiroyli leksemasi ishtirok etgan ushbu gapga diqqat qiling: “Shaharda shunday chiroyli qizlar bor – koʻrsang, ogʻzing ochiladi”. Demak, affiksatsion usulda yasalgan ushbu soʻz maʼnoviy jihatdan goʻzal va xushroʻy soʻzlariga sinonimlik hosil qilar ekan. Misol sifatida keltirilgan birinchi sinonim qator oʻzi birikib kelayotgan soʻz bilan hamisha moslik hosil qilavermaydi, yaʼni ergashib kelayotgan soʻzi baʼzi hollarda nooʻrin qoʻllanilishi mumkin:

№	1-qator (toʻgʻri qoʻllanilgan)	2-qator (nooʻrin qoʻllanilgan)
1	Goʻzal inson	Goʻzal hayvon
2	Chiroyli inson	-
2	Xushroʻy inson	Xushroʻy hayvon

Demak, mantiqiy jihatdan ham goʻzal va xushroʻy leksemalarining subyektga nisbatan ishlatilishi maʼnoning yanada oydinlashuviga xizmat qilar ekan.

Keltirilgan ikkinchi sinonimik qatorda xunuk soʻzi denonat vazifasini bajargan, badbashara va turqi sovuq soʻzlari ushbu soʻzga maʼnodoshlik hosil qilgan. “Koʻrinishi yoqimsiz, koʻrimsiz, yoqimli emas” maʼnosi keltirilgan Wikipedia online ochiq lugʻatida xunuk leksemasining aslida, “sovuq”, “salqin” maʼnosiga ega ekanligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar qayd etib oʻtiladi[9]. Xunuk soʻziga maʼnodoshlik hosil qilgan turqi sovuq birligi, aslan olganda, frazeologik birikma sanaladi. Ushbu ikki soʻz oʻrtasida nozik maʼnoviy farqlanish mavjud boʻlib, ularning baʼzi hollarda birining oʻrnida ikkinchisini ishlatish mutlaqo gʻalizlikni keltirib chiqaradi:

- I. Xunuk odam – turqi sovuq odam.
- II. Xunuk hayvon – turqi sovuq hayvon.

Yuqorida qayd etilgan birinchi misolda xunuk va turqi sovuq soʻzining odam leksemasiga nisbatan ishlatilishi maʼnoga putur yetkazmagan boʻlsa-da, biroq ikkinchi misoldagi sinonimik qatorning “hayvon” soʻzi bilan birgalikda qoʻllanilishi maʼnoviy jihatdan biroz gʻalizlikka sabab boʻlgan. Toʻgʻri, xunuk hayvon birikmasi uslubiy jihatdan oʻrinli ishlatilgan, ammo turqi sovuq paremasi maʼnosining buzilishiga sabab boʻlgan.

Sifat soʻz turkumi stilistik jihatdan ham maʼlum nutq uslublari doirasida qoʻllana olishi bilan ham ahamiyatli boʻlishi mumkin. Sababi, baʼzi nutq uslubida qoʻllanilgan sifat turkumini boshqa nutq uslubida qoʻllash maʼnoga butkul putur yetkazadi. Soʻzlashuv uslubi va badiiy uslub sifat soʻz turkumining barcha soʻz va leksemalarini “qabul qila oladigan” uslublar sanaladi. Soʻzlashuv va badiiy uslublardan olingan ushbu misollarga eʼtibor bering:

- Dilobar – yaxshi qiz, kelin qilsang arziydi-ya, oy desa oydak , kun desa kundak qiz (so`zlashuv uslubi).

- Uzun tunlar bunchalar uzun,
Uzun tunlar bunchalar mahzun(badiiy uslub)

Publisistik uslubda ham sifatning barcha turlari mahsuldor qo'llanavermaydi. Ommaviy axborot vositalarining talabidan kelib chiqqan holda uslubiy xoslangan sifatlar qo'llanilishi mumkin. Biroq , shu o`rinda ta`kidlash lozimki, sifat turkumining ilmiy va rasmiy uslublarda foydalanilishi ikkilamchi hodisa sanaladi. Sababi, har bir sifatga xos so`zlarni ushbu uslublarda ishlatish ularning ma`nosiga ta`sir o`tkazadi. Shunday sifat turkumiga oid so`zlar borki, ularni ilmiy va rasmiy uslublarda ishlatish juda ham noo`rin, xususan, turqi sovuq, odamiy, go`zal va hokazo. Sifatga oid so`zlar qanchalik neytral holatda ishlatilsa, nutq uslubining ham shunchalik ravonlashuviga yordam beradi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, shaxs yoki narsalarning belgisini ifodalovchi sifat so`z turkumi o`ziga xos uslubiy xususiyatlarga ega. Ularning ma`noviy guruhiga ko`ra ma`lum holatda qo'llanilishi sifatga oid so`zlarning ma`no nozikliklarini anglashni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarova M, Yunusov R va boshqalar. O`zbek tili praktikumi. Jizzax - 2007
2. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Т.: Ўқитувчи, 1996. 76 б.
3. Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш. Монография. Т.: Муҳаррир, 2010, 132 б.
4. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. (ўқув-ўсулий қўлланма). Т.: Фан, 2002. 137 б.
5. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаши. Т.: Ўқитувчи, 1989. 112 б.
6. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили. Ф.Камол таҳрири остида. Т.: Фан, 1957. 470 б.
7. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Фонетика, лексикология, морфология. Ғ.А. Абдурахмоновнинг умумий таҳрири остида. Т.: Фан, 1966, 392 б.
8. Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ва кўчиш ҳоллари. Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 135 б.
9. www.wikipedia.org
10. www.google.com